

G'AZAL-TAXAYYUL OLAMI

Nosirov. I. A.

Angren Uiversteti

“Tillar va uni o’qitish metodikasi” dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Mazkur maqola Milliy o‘quv dasturi asosida o‘quvchitalabalarni o‘zbek tili va adabiyoti fanlaridan o‘zlashtirgan nazariy-amaliy va ko‘nikmalarining uyg‘unlashuvida hamda kelajakda olgan bilimlarini integratsiyalay oladigan, shuningdek, fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatiga ega bo‘lgan va bozor talabiga javob beradigan mutaxassis tayyorlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. integratsiyalashuv, kreativ yondashuv, taqqoslash, qiyoslash, modellashtirish, kompetensiya

Аннотация. Данная статья, основанная на Национальной учебной программе, позволяет учащимся объединить теоретические и практические навыки, полученные ими по предметам узбекского языка и литературы, и интегрировать полученные знания в дальнейшем, а также применить достижения науки на практике, направленные на подготовку специалиста, способного получать и удовлетворять рыночный спрос.

Ключевые слова. интеграция, творческий подход, сравнение, сравнение, моделирование, компетентност.

Abstract. This article, based on the National Curriculum, allows students to combine the theoretical and practical skills they have acquired in the subjects of the Uzbek language and literature, and integrate the acquired knowledge in the future, as well as apply scientific achievements in practice, aimed at preparing a specialist capable of receiving and meet market demand.

Key words. integration, creative approach, comparison, modeling, competenc

Alisher Navoiy hazratlarining har bir asari ifodasi ulkan ijod namunasi sifatida ul zoti sharifning ma’naviy-ma’rifiy va mushohada olamining naqadar yuksak pog‘onada ekanidan guvohlik beradi. Kitobxon bir nafas tin olib, bu ummon tubida yashnoq sadaf qobig‘ida yashirilgan mana men deya duraxshon durlarning oroyishiga maftun bo‘lib, inju topgan g‘avvosdek shodlanib, mo‘jiza sohibiga istig‘for keltirishi tabiiy. Xususan, Alisher Navoiy ijodiyotida g‘azal salmoqli o‘rinni tashkil etadi. G‘azal janri tuzilishi nuqtai nazaridan turli syujetlar silsilasidan iborat. U orifona, so‘fiyona, falasafiy, ishqiy, ijtimoiy, maishiy, shuningdek, nabotot-tabiat olamining go‘zal yaratqilarini tasviriga bag‘ishlangan turli janglarga oid bo‘ladi. G‘azalda tasvirlanmish voqelik ifodasi tanlangan mavzuning talab va tabiatiga muvofiq o‘ziga xos lisoniy rang-baranglikni shakl etadi. G‘azal ishqiy bo‘lsa, mahbubning surati tasviriga oid: qosh, zulf, dudoq, jabin, ruh, oraz, husn, xol, hindu, xat, o‘q, payqon, sarv, qomat, ashk, gulob, selob, xunob kabi so‘zlar bilan; so‘fiyona bo‘lsa, solik, pir, murshid, tariqat, haqiqat, fano, baqo, dahr, ishq, may, darvish va hokazo so‘zlar vositasida ifodalananadi. G‘azal mazmun va shakl jihatidan bir butun qolipga solingan

badiiy poetik yaxlitlik, aruziy qoidadan tarkib topgan, tugal g‘oyaviy mazmun jihatdan mukammal imorat. Tom ma’noda g‘azal nozik his-tuyg‘ularning noyob ifodasi yoxud ichki to‘fonning tashqi manzarasi, tasviri. Bizningcha, g‘azal bir shoda gavharga sayqal berilgan dur, ayni choqda tazhib qilingan so‘zlarning zar qutisi. G‘azal – muattar ifor, uni his etish, undan zavqlanish, shavq o‘tida parvonadek kuyish, shamdek yonish, ilohiy go‘zallikni qalb ko‘zi bilan idrok etish demakdir. G‘azal minglab naqshli zarbo‘yoqlarda mavjlangan, nigorishu oroyish topgan jozibali qasri ulo . Shuningdek, uning tarovati latofat, ma’nisi ruhi mutlaq, o‘qilishi sazovorlik, xulosasi mushohada, mevasi tamkin, kamingohi saodat, zoviyasi komillik, qarorgohi hikmat, martabasi sharaf, maqomi hijron, ko‘yik jonlarga malham, dardmandlar dardiga shifo va lazzat, oshiqlarga safo, mayi nob, muhabbatda qudrat va saxo, ishq sahosida Layli va Majnun, vafo bo‘stonida Farhodu Shirin, vasl chamanida Vomiqu Uzro, g‘ariblar chun matlubu maqsud.

Navoiy hazratlari: “La’li mayi aqlni mast aylasa, Mast nekim, bodaparast aylasa” nafosat, fasohat bilan yug‘rilgan bu orifona hikmat she’riyat shaydolari, g‘azal bodaparastlari qalbida yechilmagan tugunlarni kaliti, ochqichi, muftoh ul-qulub hamdir. Adabiyot ilmi nuktadonlari akademik Aziz Qayumov, akademik Alibek Rustamov, professor olimlarimizdan Hamid Sulaymonov, Abdulqodir Hayitmetov, Anvar Hojiahmedov, Najmiddin Komilov, akademik Shuhrat Sirojiddinov, Muslihiddin Muhiddinov, Ibrohim Haqqulov, Vahob Rahmonov, Dilorom Salohiy, Sultonmurod Olim, Nusratxo‘ja Jumaev, Olimjon Davlat va yetuk shorehlarning tavsif, talqin va tahlillari hazrat Navoiy tafakkur olami tadqiqiga bag‘ishlangan. Adabiyot ilmi, navoiyshunoslikda yaratilgan fundamental tadqiqotlar darajasidagi yetuk ilmiy-amaliy manba hisoblanadi. Ko‘ngilga taskin va tasalli berish maqsadida hazratning “Foniysi mutlaq o‘lmayin solik, Anga yo‘qtur umidi maqsadi kull” qit’a baytida ifodalangan hikmatiga amal qilgan holda ba’zan ustozlarning insholariga payravlik ehtiyoji tug‘iladi. Shu maqsadda, biz “G‘aroyib us-sig‘ar” (Navoiy, O‘n jildlik, 1-j) devonining “shin” bahri sirasiga kirgan “binafsh” lafzi bilan bitilgan g‘azal tavsifiga e’tiboringizni qaratishga jazm qildik: Qilg‘ali kiygan libosin ul buti zebo binafsh, Vahki, yoqmas xotirimg‘a hech rang illo binafsh. Sarvi ra’no hullamu kiymish binafsha rangidin, Yo libosin aylamish ul chobuki ra’no binafsh? Xushturur gar xil’atin qilsa qaro yo savsaniy , Kim quyosh mushkin bulutdin xush ko‘rinur yo binafsh. Ezdi jannat gullaridin rang naqqoshi qazo, Sen kiyardek chunki bo‘lmas dahr aro paydo binafsh. To binafsh etmish to‘nin ul gul, borurmen hushdin, Bog‘ aro har gulnikim ko‘rsam meni shaydo binafsh. Gul binafshazor aro tushgan kibi ul sho‘xning Ko‘nglaki volo binafshu to‘ni ham kimxo binafsh. Sabzada savsan yarashqandek muloyimdur base, Sho‘xi sabzoranglarning rangiga debo binafsh. Juz binafsha bog‘ aro gul ekmagil, ey bog‘bon, Kim libosi rangini istar bizing Mirzo binafsh. Bo‘ylakim, soqiy to‘nin qilmish binafsh ermas ajab, Aksidin bo‘lsa bilurin sog‘ari sahbo binafsh. Charx rangomiz erur, ko‘rma tafovut zinhor, Ranglarkim, ko‘rguzur ko‘ku yashildin to binafsh. Ey Navoiy, ul binafshapo‘sh gulning vasfida, Bo‘lmasun har ne yozarsen kog‘azi illo binafsh.

Haqiqatdan mo‘jizkalkom bu satrlar hazrat Navoiyga xos yaratqi bo‘lib, hech bir o‘zga g‘azalsaroy shoirlar devonida nazm silkiga tortilgani ma’lum va marg‘ub emas. Illo, otashin so‘zlar tarovati ila muzayyan etilgan bu g‘azal tafti Iso damidek jonbaxsh, ilohiy ishq sifatida oshiqlar ruhiga madad, dil toriga shavqu zavq, xasta ko‘ngillarga quvvat, bemorlarga muhabbat ato qilib kelgani ayni haqiqat. Hazrat Navoiy xayolot charxida sarson, jilovsiz, hech bir makon va zamonga sig‘maydigan ishq suratini haqiqiy borliq olami bilan bog‘lab, go‘zal tabassumi, yashnoq chehrasi ila bo‘stonda bo‘y taratgan husn, malohatda yagona binafsha siyrati vasfi orqali ishq shaydolarini diydor sayliga chorlaydi hamda binafsh ruxsorli yorning inja hayratomuz, nozik, tamannoli ishva, shevalarini majoz, istiora, kinoyaviy vositalarda jonlantib, ruh olamiga olib kiradi. E’tibor bering: shoir birinchi baytning avvalgi misrasida zebo qomatli go‘zal yor kiygan kiyimini binafsh, yashildan ekaniga ishora etib, keyingi misrada esa xitob, hayrat bilan ajabo, xushki, mening xotirimga binafsha rangidan o‘zga rang, illo yoqmaydi, deb voqelikni bo‘rttirib, zidlab matlab bayoniga o‘tadi.

Ikkinci baytda sarv qomatli ra’no, go‘zal “hullamu kiymish binafsha bargidin” deb, sarvi ra’noni kiygan libosi binafsha bargli guldan ekaniga diqqati qaratib, hayratlanadi va keyingi misrada ritorik so‘roq bilan “yo libosin aylamish” deb, “chobuki ra’no”ga xos fe'l-atvorni, bo‘rttirib, sifatlab, u ataylab libosini binafsh, yashil etganidan ajablanib, shubhaga boradi.

Uchinchi baytda mahbubga yuzlanib, agar u xil’at-poshohana libosi gar qora yoki savsaniy rangidan qilsa edi yaxshi, maqbul bo‘lardi, qora mushkin bulut quyosh yuzini to‘sganda goh ko‘rinib, goh yashirinib holati xush ko‘rinadimi yo binafshnimi deb, binafshaning baxmaldek tarovatlari siyoh-qirmizi chiroyga e’tiborni qaratdi. Iyhom, tanosub. Taqqoslash (Rustamov 1979; 30-72) qo‘llangan. To‘rtinchi baytda naqqoshi qazo-taqdir, ya’ni parvardigori olam taqdir, qismatni yaratuvchisi, jannat gullaridan o‘z ijodi bilan rang tayyorlagan, chunki mahbub kiygan libos bu dahr, bu dunyo(majoz)ki emas, azaliyat yaratqisi. Kinoya. Beshinchi baytda ul gul, mahbub to‘nini boshdan-oyoq binafsh qilibdi, uni ko‘rib hushimni yuqotdim, bog‘ aro qaysi bir gulni ko‘rsam xuddi binafshaga o‘xshataman va ular meni shaydo qiladi deydi. Istiora.

Oltinchi baytda gul binafshazorda mos tushgani kabi, “ul sho‘x”ning ko‘ylagi mayin qimmat baholi ipakdan to‘qilgan binafsha rangli nafis matodan, to‘ni esa binafsha gulli “kimxo”dan deydi. Bu o‘rinda ko‘nglak va to‘n, volo(ipakdan to‘qilgan mato nomi) va kimxo sinonim bo‘lib, binafshaga nisbatan majoziy ma’noda qo‘llangan. Tanosub, tamsil, qiyos, tashbih (Hojimatov,1999, 70-150).

Yettinchi baytda *sabz(a)* so‘zi aslida yangi ungan yosh giyoh, ammo bu o‘rinda gulzor ma’nosida qo‘llangan. Shoir sabzada, gulzorda savsan tarovati base, nihoyat uyg‘un, yoqimli, tarovatlari, xush tushganidek, sho‘xi sabzoranglar (ko‘chma ma’noda go‘zallar)ning ranggiga deboharir qimmat baholi kiyim, binafsha rangli ipak yuzli sanamga o‘ta mos, loyiq ko‘rinish beradi, deb tasvirlaydi. Bu o‘rinda shoir so‘z qo‘llashda mahorat ko‘rsatgan. “Sho‘xi sabzorang” izofali birikma esa baytda poetik ruh, bo‘rtiriqli komponent, ma’no birligi. Ifodaning yuksak zinasi. Bu baytda ikki manzara mavjud, biri chamanda gullarning yoqimli tebranishi bo‘lsa, keyingisi sho‘x go‘zal yor, mahbublarning sabzorang kiygan libosi gulzordagi gullar bilan hamrang

ekaniga nisbat berilgan. Sifatlash, tashbih. “Rang” so‘zi qomat, ko‘rinish. “Kimxo binafsh” birikmasi esa binafsh rangli libos, to‘n, chopon ma’nosida. San’atlar: jonlantirish, tamsil, tashxis, ruju’.

Sakkizinchi baytda bog‘bon-oshiqqa murojaat qilib, bog‘da binafshadan o‘zga gul ekmagil, chunkim bizning Mirzo(Sulton Husayn Boyqaro) ham o‘z libosi rangini binafsha rangidan bo‘lmog‘ini istaydi deb ogohlantiradi. Mirzoga nisbatan kinoya, rashk ma’nosida. Demak, ishq zohiran, botinan ruhiy, ma’nan ilohiy vosita, provardda rashk bilan yug‘rilgan shuuriy hodisa.

To‘qqizinchi baytda roviy tinglovchiga qarata: “ soqiy to‘nin qilmish binafsh” deb, soqiy to‘nini binafsh rangidan qilganidan ajablanish kerak emas, chunki uning to‘ni bulurin(bulur yunoncha.-arabcha so‘z, -in yasovchi qo‘s Shimcha, bulurdan yasalgan idish)dan deb, mavjli shaffof qadahga quyilgan “sahbo binafsh” qiziltob may rangi bilan uyg‘un, mos, monand ekaniga ma’no yuklaydi shoir. Mumtoz badiiy adabiyotda soqiy, sog‘ar, may kabi so‘zlar doim detal sifatida yonma-yon keladi. Soqiy majozan yo‘lboshchi, Yaratuvchiga nisbat berish. Sog‘ar moddiy dunyoning ramzi, may-moddiy dunyoning zuhurlanishi, ko‘rinishi, hayot, voqelik.

O‘ninchи baytda yuqoridadek murojaat va tasdiq mavjud. “Charx” so‘zi ostida ko‘p mo’no yashirilgan va charxni rangomiz deb g‘azalda bo‘rtirib qo‘llashning sababi shuki, charx vaqt birligida doim harakatdagi jarayon, demak uning turli ranglarda bo‘lishi, turli ranglarda o‘zgarishi, ko‘rinishi tabiiy hodisa va keskin bir ohangda “qilma zinhor tafovut” deb, Allohning izmiga qarama-qarshi zinhor farq, tafovut, yo‘lini tutmaslikka chaqiradi mahbubni. Haqiqatda insoniyat olami, o‘simplik, hayvonot dunyosi, butun mavjudot ana shu charx rangi bilan uyg‘un degan ma’no ham anglashadi bu baytdan. Oxirgi baytda maqta’ talabiga muvofiq shoir dilbandini tafakkur va xulosa qilishga chaqiradi va o‘ziga qarata ey Navoiy, binafshapo‘sh gul(yor, mahbub)ning vasfida “har ne yozarsen kog‘azi illo binafsh bo‘lmasun,” binafsh kog‘zada illo binafsh rangidek qolib ketmasin, aksincha binafshadek bo‘y taratsin deb umid qiladi.

Binafsha obrazini “Xamsa” dostonlarida ham zo‘r mahorat bilan badiiy tasvirga tortadilar Navoiy hazratlari. Binafsha o‘ta uyatchan gul. Doim boshi egik, bardoshli. Rashk o‘tida tug‘ilgan mish...Chiroyda gullar sarvari, chamanlar ichra yakto. Ishq sarchashmasi.deb ta’riflanadi.

Mir Alisher Navoiy hazratlari “Farhod va Shirin”da:Binafsha andakim gardun ko‘kartib, Gajak yanlig‘ xirad bo‘ynini tortib. Masnaviy baytiga ichki bir sezim bilan diqqat qilinsa, o‘zgacha bir ruhiy olamga kirib boradi kitobxon. Binafsha “andakim”, ya’ni gulzorda gardun kabi o‘zini namoyish etishi va gajak yanlig‘ xirad bo‘yni ibo bilan tortib turishi ko‘kdagi yulduzlarning sachratqi chiroyiga monandligi tashbih, qiyos qilinadi. Bu hazratning taxayuloti. Aslida ifodaning o‘zgacha tashbihni ham mavjud. Binafsha epitet va u shoir ardog‘idagi gullarning eng faxrlisi. Navoiy hazratlari binafshani insonga xos xirad: *aql, zehn, hush, sezim, tafakkur, bilim* kabi sifatlar bilan jonlantirib, voqelikka olib kiradilar. Roviyning binafshaga bunchalik mehr qo‘yishining sababi nimada? Bizningcha, provard natija binafshaning bu noyob husni latofati, go‘zal siymosi orqali Shirin obrazini sifatlash va Shirin bilan binafsha

orasida uyg‘un mutanosib chizmalarni o‘quvchiga yetkazishga qaratilgan. Chunki Shirin insoniyat bog‘ida binafshadek tanho, fasohat bog‘ida kamolotda yetuk, tengsiz va aql xiradda komil inson. Demak, shoirning matlabi nabotot olami bilan insoniyat olami bir-biri bilan ajralmas bir butun, degan umumlashma, falsafiy xulosaga keladi va bu tom ma’noda ibrat va hikmat. Umumbashariy orifona tushuncha. Yana, bizningcha, bir sodda sharh shuki, suyukli qizning yori oldida uyalingirab, boshini quyi egib, xijolat tortib turishi binafsha holatiga monand, deyish mumkin. “Saddi Iskandariy”da:

Binafsha boshin andin aylab quyi,
Ki, ostig‘a aning kirib mul suyi.

Binafsha chanog‘iga mul (shudring) suvini enishi, uning tong paytidagi yaltiroq holatiga tashbeh, qiyos. Mul suyi – yuk, majozan hijron; ashk, ko‘z yoshi. Binafshaning diloshib ko‘rinishi esa qiz bolaning kelinlik libosini kiyishidagi xushnudlik bilan to‘kkan nozli ko‘z yoshiga nisbat deb anglash lozim . Aslida bu istig‘no.

Boshqa bir o‘rinda: Binafshaki o‘z qaddin aylab nigun, Qalinliqda chodirshabi nilgun. E’tibor qiling: binafsha o‘z qaddini bukishi, egishi, lojuvard siyohrang osmonda sachratqi kabi sochilgan yulduzlarning yashnoq shu’lasi gulli choyshabning jilosiga o‘xhatiladi. Dilbar chizmalarda zuhurlangan voqelik shoirning hissiy tuyg‘ularini g‘oyat emotsiyal ruhda tarannum etilganidan dalolat beradi. Baytda, qiyos, iyhom hamda ishora mazmuni ham mavjud. Xalqimiz urfida kelin tushurish to‘yida kelinning boshi uzra yopilgan chiroyli choyshab. ayni chordirshabi nilgunga monand deb, talqin qilish ham mumkin. Hazrat Navoiyning har bir so‘zлари nayshakardek, simirsangiz dilingiz quvvat oladi, ruhingiz taskin topadi, ishqingiz to‘fon otadi, qalbingiz tug‘yonga keladi. O‘zlik o‘zdan kechadi. Xulosada hazratning: “Quyoshdek titramak da’fin sahargoh orzu qilsang, Quyoshdek jomni titrab sumurmak farz erur avval” baytlari ila ushbu musavvadani xatim qilmoqni lozim deb bildim.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Биринчи жилд, “Хазойин ул—маоний”, “Фаройи ус—сиғар”. –Т.: “Ўзбекистон Матбуот ва ахбарот агентлиги,Faфур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи”, 2011, 288-бет.
2. Алибек Рустамов. Навоийнинг бадиий маҳорати. –Т.: “Faфур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1979, 30-72-бетлар.
3. Анвар Хожиахмедов. Мумтоз бадиият малоҳати. –Т.: “Шарқ нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти. 1999. 70-150 -бетлар.
4. Нажмиддин Комилов. Маънолар оламига сафар. –Т.: “Тамаддун” 2012, 3-145-бетлар.
5. Луғатнома. Таълифи Али Акбар Денхудо.-Техрон,1340 h.sh.